

“TASDIQLANGAN”

Aksiyadorlik tijorat
“Aloqabank”

Kuzatuv kengashi Raisi


Sh. X. Shermatov
2026-yil 3-iyun


“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Istiqbolli loyihalar
milliy agentligi

Direktorning birinchi o‘rinbosari


V. Yu. Pak
2026-yil “16”-avgust 2021-32 son


**AKSIYADORLIK TIJORAT “ALOQABANK”
QO‘SHIMCHA AKSIYALAR CHIQRILISHI TO‘G‘RISIDAGI
QARORI**

Identifikatsiya raqami berildi:

R	U	1	3	2	P	O	O	2	1	R	8
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, nominal qiymati 1 (bir) so‘m bo‘lgan 845 256 750 000 (sakkiz yuz qirq besh milliard ikki yuz ellik olti million yetti yuz ellik ming) dona umumiy qiymati 845 256 750 000 (sakkiz yuz qirq besh milliard ikki yuz ellik olti million yetti yuz ellik ming) so‘mlik oddiy aksiyalar.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar **yopiq obuna** usuli bilan joylashtiriladi.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi **o‘ttiz ikkinchi** chiqarilishdir.

AT “Aloqabank” Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2026-yil 3-iyundagi 021–son bayonnomasi bilan aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qaror tasdiqlangan.

AT Aloqabank” Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2026-yil 3-iyundagi 021–son bayonnomasi bilan aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili: **100011, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor MFY, O‘qchi ko‘chasi, 2-uy. Tel.: 71-230-77-77, 71-232-83-67. Elektron pochta manzili: info@aloqabank.uz.**

AT “Aloqabank”
Boshqaruv Raisi v.b.:



Irisbekova Kammuna Narinbaevna

Bosh buxgalter:


Qurbonov Odilbek Ruzmatovich
2026-yil 3-iyun


1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): **Oddiy aksiyalar.**
2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli: **Hujjatsiz shaklda.**
3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm): **1 (bir) so'm.**
4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona) – **845 256 750 000 (sakkiz yuz qirq besh milliard ikki yuz ellik olti million yetti yuz ellik ming) dona.**
5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm): **845 256 750 000 (sakkiz yuz qirq besh milliard ikki yuz ellik olti million yetti yuz ellik ming) so'm.**
6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:
 - aksiyadorlar reestriga kiritilish va o'zi haqida depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
 - bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish va uni erkin tasarruf etish;
 - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish orqali bankni boshqarishda ishtirok etish;
 - bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
 - qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
 - o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
 - qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;
 - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida o'z vakili orqali ishtirok etish, o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirish yoki unda shaxsan ishtirok etish;
 - bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga mos ravishda mol-mulkning bir qismini olish;
 - o'ziga yetkazilgan zararining o'mi qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
 - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va bank Ustavi bilan belgilangan boshqa huquqlar.
7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va (yoki) chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:

Bank Ustavida aksiyalar olinishiga cheklovlar o'rnatilmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq salohiyatli investor va aksiyadorlar tomonidan aksiyalarini sotib olishga qo'yidagi cheklovlar mavjud:

 - 1) Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:
 - besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;
 - yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;
 - ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning Dastlabki ruxsatnomasini olishlari shart.
 - 2) Qo'yidagi shaxslar bank aksiyadorlari bo'la olmaydi:
 - ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;
 - imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etish nazarda tutilmaydigan davlatda yoki hududda

ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va shunday davlatda yoki hududda yashaydigan jismoniy shaxslar.

Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga muvofiq bankning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar, ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni o'ziga tegishli oddiy aksiyalar soniga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqiga ega. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugagandan so'ng, mazkur chiqarilishdagi aksiyalarning qolgan qismi yopiq obuna yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga joylashtiriladi.

8. Bank ustav kapitalining miqdori (so'm): **2 832 883 296 965 (Ikki trillion sakkiz yuz o'ttiz ikki milliard sakkiz yuz sakson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'm.**

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi): **2 832 883 296 965 (ikki trillion sakkiz yuz o'ttiz ikki milliard sakkiz yuz sakson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) dona, shundan:**

- hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiya – **2 829 193 296 965 (ikki trillion sakkiz yuz yigirma to'qqiz milliard bir yuz to'qson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) dona;**

- hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya – **3 690 000 000 (uch milliard olti yuz to'qson million) dona.**

10. Ilgari joylashtirilgan korporativ obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi): **Bank tomonidan xujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan nominal qiymati 100 000 (bir yuz) so'm bo'lgan 120 000 (bir yuz yigirma) dona foizli korporativ obligatsiyalar joylashtirilgan. Shu jumladan:**

2010-yilning 22-iyulida egasining nomi yozilgan nominal qiymati 100 000 (bir yuz) so'm bo'lgan 30 000 (o'ttiz) dona foizli korporativ obligatsiyalar P0848-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan. Ushbu obligatsiyalar so'ndirish muddati kelganligi sababli Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2015-yil 18-sentyabrdagi 15-07/169-sonli qaroriga asosan so'ndirilgan.

2011-yilning 4-noyabrida egasining nomi yozilgan nominal qiymati 100 000 (bir yuz) so'm bo'lgan 30 000 (o'ttiz) dona foizli korporativ obligatsiyalar P0848-2-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan. Ushbu obligatsiyalar so'ndirish muddati kelganligi sababli Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2016-yil 18-dekabrdagi 15-07/055-sonli qaroriga asosan so'ndirilgan.

2012-yilning 5-noyabrida egasining nomi yozilgan nominal qiymati 100 000 (bir yuz) so'm bo'lgan 30 000 (o'ttiz) dona foizli korporativ obligatsiyalar P0848-3-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan. Ushbu obligatsiyalar so'ndirish muddati kelganligi sababli Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2017-yil 18-dekabrdagi 15-07/034-sonli qaroriga asosan so'ndirilgan.

2013-yilning 26-martida egasining nomi yozilgan nominal qiymati 100 000 (bir yuz) so'm bo'lgan 30 000 (o'ttiz) dona foizli korporativ obligatsiyalar P0848-4-raqam bilan davlat ro'yhatiga olingan. Ushbu obligatsiyalar so'ndirish muddati kelganligi sababli Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazining 2016-yil 7-sentyabrdagi 15-07/040-sonli qaroriga asosan so'ndirilgan.

11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi:

11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna);

(Yopiq obuna bo'lgan taqdirda, shuningdek aksiyalarni potensial oluvchilar doirasi ham ko'rsatiladi).

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar yopiq obuna yo'li bilan imtiyozli huquq qo'llanilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi "Tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–210-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga joylashtiriladi.

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati;

(Ko'rsatiladi: aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi va tugatish sanasi yoki aksiyalarni joylashtirish muddatini belgilash tartibi.

Agar aksiyalarni joylashtirish muddati aksiyalarning chiqarilishi to'g'risidagi biron-bir axborotni oshkor qilish sanasini ko'rsatgan holda belgilansa, shuningdek bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham ko'rsatiladi).

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning joylashtirish muddati qo'shimcha aksiyalarni chiqarilish to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 365 kun mobaynida joylashtiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – ushbu qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumot va qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli huquqni amal qilish muddati to'g'risidagi bildirishnoma ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kundan boshlab 11 (o'n birinchi) kuni. Agar bu muddat o'tguniga qadar jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, joylashtirishni boshlash sanasi oxirgi ariza kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan boshlanadi, bunda joylashtirishning boshlanish sanasi e'lon va bildirishnoma berilgan kundan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'lmasligi lozim. Agar joylashtirish sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bankning hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun keyingi birinchi ish kuni joylashtirish sanasi hisoblanadi.

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan kun, lekin qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tgan kundan 365 kun ortiq bo'lmagan muddatda.

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

(Ko'rsatiladi: aksiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan bozorlar.

Agar emitent tomonidan aksiyalarni joylashtirish emitentga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini (anderrayerlar) jalb qilish bilan amalga oshirilsa, har bir bunday shaxs yuzasidan qo'shimcha ravishda quyidagilar ko'rsatiladi:

to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;

professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ;

ushbu shaxsning asosiy vazifalari, agarda emitent va unga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada shu kabi shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan aksiyalarni oxirgisi tomonidan o'z hisobidan olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi.).

Ushbu chiqarilayotgan aksiyalarni sotib olishda bank Ustaviga asosan aksiyadorlarga aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish huquqi beriladi. Imtiyozli huquqdan foydalanish muddati 10 (o'n) kuni tashkil etadi. Aksiyadorlar bilan imtiyozli huquqni qo'llagan holda aksiyalarni joylashtirish amalga oshirilgan taqdirda birjadan tashqari uyushmagan bozorda to'g'ridan-to'g'ri fuqarolik-huquqiy bitim tuzish orqali amalga oshiriladi.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi "Tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–210-sonli qaroriga asosan birjadan tashqari uyushmagan bozorda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan bank o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali joylashtiriladi.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish bo'yicha anderrayterlar jalb qilinmaydi.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariy to'g'risida ma'lumot:

nomi – **“Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati;**

joylashgan joyi va pochta manzili – **100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shohko'chasi, 107-uy;** telefon: **71-211-09-09;** rasmiy veb-sayt: www.uzcsd.uz, elektron pochta manzili: info@uzcsd.uz.

“DEPO INVEST TRAST” mas'uliyati cheklangan jamiyati:

Joylashgan joyi va pochta manzili: **100000, Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 6-uy, 87-xonadon;** telefon: **78-150-39-53;** faks: **78-150-39-53;** rasmiy veb-sayt: www.depindra.uz; elektron pochta manzili: depindra@mail.ru.

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

(Joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilgan taqdirda quyidagilar ko'rsatiladi:

bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarning ro'yxati tuzilgan sana (sanani belgilash tartibi);

joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish ehtimoli to'g'risida bildirish tartibi;

joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi.)

Bank tomonidan aksiyalarni joylashtirishda oddiy (ovoz beruvchi) aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi, ya'ni 2026-yil 3-iyun holatiga shakllantirilgan bank aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Bank aksiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng, belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali imtiyozli huquqqa ega bo'lgan o'z aksiyadorlariga aksiyalarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda joylashtiriladi.

Imtiyozli xuquqning amal qilish muddati tegishli axborot e'lon qilingan kundan boshlab 10 kuni tashkil etadi. Bunda, aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida, Bank aksiyadorlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishda ularning imtiyozli xuquqidan foydalanish imkoniyati tug'risida xabardor qiladi. E'londa: joylashtirilayotgan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador sotib olishga haqli bo'lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi tug'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni sotib olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Bankka yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini tuliq yoki qisman amalga oshirishga xaqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli xuquqning amal qilish muddati ichida Bankka taqdim etilishi kerak.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish tug'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish xaqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa tugaydi. Imtiyozli xuquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yul qo'yilmaydi

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:

(aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi.

Agar aksiyalarni joylashtirishda aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilsa, qo'shimcha ravishda bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarga baho yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi.).

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar, shu jumladan imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarga ham, nominal qiymatida, ya'ni 1 (bir) so'mdan joylashtiriladi.

11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:

(Aksiyalarni to'lash shartlari, tartibi, shu jumladan hisob-kitoblarning shakli, kredit tashkilotlarining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, ularning joylashgan joyi, aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko'chirilishi lozim bo'lgan hisobvaraqlarning bank rekvizitlari, to'lov shoxobchalarining manzili (naqd pul shaklida to'langanda.).

Aksiyalar pul bo'lmagan vositalar bilan to'langan taqdirda aksiyalar to'lanishi mumkin bo'lgan mol-mulk, to'lov shartlari bunday to'lov sharoitida rasmiylashtiriladigan hujjatlar (mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazo) bilan, shuningdek bunday mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun jalb qilinadigan baholovchi (baholovchilar) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

baholovchining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;

baholash faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va litsenziyaning amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ.).

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati davomida aksiyalar uchun to'lovlar faqat pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda to'lovlar aksiyadorlar tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan naqdsiz shaklda amalga oshiriladi. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugagandan so'ng qolgan aksiyalarni joylashtirish jarayonida ham aksiyalar uchun to'lovlar faqat pul mablag'lari hisobidan, pul o'tkazish yo'li bilan naqdsiz shaklda amalga oshiriladi. Aksiyalar uchun to'lov sifatida kiritiladigan pul mablag'lari Bankning 29803000700000401032 tranzit hisob raqamiga qabul qilinadi, Bank nomi – Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” (AT “Aloqabank”), Bank kodi – 00401, Bank STIRi – 200829053, Bank manzili – 100011, O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor MFY, O'qchi ko'chasi, 2-uy.

Aksiyalar uchun kelib tushgan pul mablag'lari “Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi”ga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 26-noyabrda 3336-son bilan ro'yxatga olingan) asosan 30318 – “Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy” hisobvarag'ida olib boriladi.

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi: **Qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan aksiyalarni joylashtirish muddati tugagan sanada (ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan kun, lekin qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tgan kundan 365 kun ortiq bo'lmagan muddat) ushbu qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalarning 60 foizidan kam qismi joylashtirilgan taqdirda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topiladi, aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olingan taqdirda, aksiyalar uchun to'langan pul mablag'lari ushbu chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida aksiyadorlarga to'liq qaytarib beriladi hamda Bank tomonidan belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmaganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali xabar beriladi.**

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorning asl nusxasi va nusxalari bilan O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor MFY, O'qchi ko'chasi, 2-uyda joylashgan AT "Aloqabank"ning Bosh ofisida tanishish mumkin.

Aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi oshkor etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar aksiyalar chiqariluvini davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng o'rnatilgan muddatda Korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz), "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) e'lon qilinadi, hamda AT "Aloqabank"ning internetdagi sahifasiga joylashtiriladi. Sahifa manzili: www.aloqabank.uz.

13. Boshqa ma'lumotlar. Ko'zda tutilmagan.